

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17442563>

YASHIL INNOVATSIYALAR EKSPORTBOP MAHSULOTLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Akbarov Akramjon Ibroximjonovich

University of Business and Science “Yashil iqtisodiyot” kafedrasi o`qituvchisi

akbarovakramjon1988@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil innovatsiyalar tushunchasi, ularning eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishdagi o`rni va raqobatbardoshlikka ta`siri tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish hamda eksport salohiyatini oshirish yo`llari yoritilgan. Yashil innovatsiyalar eksportbop mahsulotlarning sifatini oshirish, xalqaro talab va standartlarga javob berishini ta`minlash orqali mamlakat iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Kalit so`zlar: eksport, yashil innovatsiya, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish, ekologik toza texnologiyalar.

KIRISH

So`nggi yillarda global iqtisodiyotda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan ishlab chiqarish jarayonlariga e`tibor kuchaymoqda. Xalqaro bozorda ekologik standartlarga javob beradigan mahsulotlarga talab ortib bormoqda. Shu bois, eksportbop mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishda yashil innovatsiyalar muhim omilga aylanmoqda.

O`zbekiston ham ushbu yo`nalishda faol islohotlarni amalga oshirmoqda: “Yashil iqtisodiyotga o`tish strategiyasi (2023–2030 yillar)”, energiya samaradorligini oshirish, uglerod izini kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish kabi chora-tadbirlar bunga misoldir. O`rganishimiz natijasining samaradorligini dolzarbligi shundan iboratki, yashil innovatsiyalar nafaqat ekologik samaradorlikni, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni ham ta`minlaydi.

Hozirgi davrda globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bir paytda, mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror o`sishini ta`minlash, ekologik muammolarni hal etish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish masalasi tobora dolzarb tus olmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil innovatsiyalar (ya`ni ekologik jihatdan toza, resurs tejamkor va atrof-muhitga kam zarar yetkazuvchi texnologiyalar va yechimlar) iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biri sifatida e`tirof etilmoqda.

Yashil innovatsiyalar nafaqat ekologik xavfsizlikni ta`minlaydi, balki korxonalar faoliyatida samaradorlikni oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Bugungi

kunda rivojlangan mamlakatlar “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga asoslangan holda, ishlab chiqarish va eksport siyosatini ekologik standartlarga mos ravishda shakllantirmoqda. Shu jarayonda yashil texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlari va resurs tejamkor innovatsion yechimlar eksportbop mahsulotlar sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirmoqda. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, ekologik toza texnologiyalarni qo‘llash, ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha qator dasturlar hayotga tatbiq etilmoqda. Bu esa nafaqat ichki bozorni sifatli va ekologik toza mahsulotlar bilan ta‘minlash, balki tashqi bozorlarda O‘zbekiston mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini bermoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik va innovatsion texnologiyalar masalalari jahon ilmiy hamjamiyatining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Xalqaro miqyosda “yashil innovatsiyalar” tushunchasi iqtisodiy o‘rish bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishni ta‘minlaydigan texnologik, tashkiliy va boshqaruv yangiliklarini anglatadi.

Chet el olimlaridan M. Porter (1995) o‘zining “Raqobat ustunligi va ekologik strategiya” asarida ta‘kidlaganidek, ekologik samaradorlikni oshirish nafaqat korxona xarajatlarini kamaytiradi, balki brend imidjini mustahkamlab, bozorda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu ma‘noda yashil innovatsiyalar eksportbop mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishning muhim strategik vositasidir.

Mahalliy olimlardan **Sh. Xolmurodov (2022)** “Yashil innovatsion iqtisodiyotning shakllanish omillari” nomli tadqiqotida O‘zbekiston iqtisodiyotida innovatsiyalarni ekologik omillar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta‘kidlagan. **D. Turaeva (2023)** esa yashil startaplar eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishda innovatsion transformatsiyaning asosi sifatida qaralishini ilgari suradi.

Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud adabiyotlarda yashil innovatsiyalar eksport salohiyatini oshiruvchi omil sifatida keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida bu masalaning amaliy mexanizmlari, ya‘ni **yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi, eksportni sertifikatlash tizimi va xalqaro bozor talablariga moslashtirish** kabi jihatlar hali to‘liq tadqiq etilmagan. Shu bois ushbu yo‘nalishda chuqur ilmiy tahlillar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Maqolamiz yuzasidan quyidagi metodlardan foydalanildi: Tahlil va sintez metodi: yashil innovatsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlaridagi joriy etilishi o‘rganildi; Taqqoslash metodi: an‘anaviy ishlab chiqarish va yashil texnologiyalar natijalari solishtirildi; Statistik tahlil: eksport ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarish samaradorligi va energiya tejamkorligi bo‘yicha mavjud ma‘lumotlar tahlil qilindi; Ekspert baholash

metodi: soha mutaxassislarining fikrlari asosida yashil innovatsiyalarning raqobatbardoshlikka ta'siri baholandi.

Shuningdek, izlanishimiz uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Statistika agentligi hamda xalqaro tashkilotlarning (UNDP, UNEP, WTO) ochiq ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizga ma'lumki, yashil innovatsiyalar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: energiya samarador texnologiyalarni joriy etish; qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish (quyosh, shamol, bioenergiya); chiqindisiz yoki kam chiqindili ishlab chiqarish tizimlarini yaratish; "eko-mahsulotlar" (ekologik toza, qayta ishlanadigan xom ashyodan tayyorlangan tovarlar) ishlab chiqarish; uglerod izini kamaytirish texnologiyalari.

Bundan tashqari yashil innovatsiyalar va mahsulot raqobatbardoshligi o'rtasidagi bog'liqlik. Ya'ni, mahsulot raqobatbardoshligi - bu mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda talabni qondirish, narx va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha boshqa mahsulotlardan ustun bo'lish qobiliyatidir. Raqobatbardoshlikni oshirish omillari ichida **innovatsion texnologiyalar, sifat menejmenti, narx siyosati** bilan bir qatorda **ekologik innovatsiyalar** ham alohida o'rin tutadi.

Shu bilan birgalikda nazariy jihatdan, yashil innovatsiyalar mahsulot raqobatbardoshligiga quyidagi yo'llar orqali ta'sir ko'rsatadi:

❖ **iqtisodiy samaradorlikni oshirish** - resurs va energiya tejankor texnologiyalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

❖ **sifatni yaxshilash** - ekologik toza, xalqaro sertifikatlariga ega mahsulotlar bozorda yuqori baholanadi.

❖ **bozor imkoniyatlarini kengaytirish** - yashil standartlarga javob beruvchi mahsulotlar rivojlangan davlatlar (yevropa ittifoqi, yaponiya, aqsh) bozorlariga chiqish imkonini beradi.

❖ **imij va brend qadriyatini oshirish** - korxonaning ekologik mas'uliyatli imiji iste'molchilar ishonchini mustahkamlaydi.

❖ **ekologik regulyatsiyalarni bajarish** - global bozorlarda "yashil talablar" (masalan, eu green deal, esg standartlari) bilan moslashish eksport uchun majburiy shartga aylanmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar eksportbop mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishda yashil innovatsiyalarning roli. Ya'ni eksportbop mahsulotlarning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan ularning **texnologik darajasi** va **barqarorlik mezonlariga** bog'liq. Porter (1990) tomonidan ilgari surilgan **raqobat ustunligi nazariyasiga** ko'ra, mamlakatlarning raqobatbardoshligi innovatsion salohiyat bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, yashil innovatsiyalar - bu yangi raqobat ustunligini shakllantiruvchi asosiy vosita hisoblanmoqda.

Bundan tashqari yashil innovatsiyalar eksportga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

❖ **xalqaro standartlarga moslashtirish**: iso 14000, eu ecolabel, esg kabi

standartlarga mos ishlab chiqarish eksport salohiyatini oshiradi.

❖ **mahsulotning qo‘shimcha qiymatini oshirish:** ekologik sertifikatlangan mahsulotlar bozorda yuqori narxda sotiladi.

❖ **barqaror eksport tarmoqlarini yaratish:** yashil texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar ekologik xavf-xatarsiz va uzoq muddatli eksport imkonini beradi.

❖ **innovatsion raqobatni kuchaytirish:** texnologik yangiliklar orqali mahsulot dizayni, energiya tejamkorligi va ekologik samaradorlik jihatidan ustunlik hosil bo‘ladi.

Shuni xam aytish lozimki, yashil innovatsiyalarni joriy etishning nazariy modellari. Bir qator iqtisodiy modellar yashil innovatsiyalarni iqtisodiy raqobatbardoshlik bilan bog‘lab o‘rganadi: **Eko-innovatsiya modeli (Rennings, 2000)** – yashil innovatsiyalar ekologik siyosat, texnologik taraqqiyot va iqtisodiy rag‘batlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlaydi. **Porter gipotezasi (Porter & van der Linde, 1995)** – ekologik regulatsiyalar (masalan, uglerod soliqlari) aslida firmalarni innovatsiyaga undaydi va raqobatbardoshlikni oshiradi. **Triple Bottom Line modeli (Elkington, 1997)** – korxona muvaffaqiyati uchta mezon: iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy mas‘uliyat va ekologik barqarorlik uyg‘unligida baholanadi.

Bu nazariyalar yashil innovatsiyalarni faqat ekologik emas, balki iqtisodiy samaradorlikning ham muhim manbai sifatida e‘tirof etadi.

Biz o‘rganib chiqqan ma‘lumotlarni tahlillari shuni ko‘rsatdiki: Yashil texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarish tannarxi o‘rtacha 15–20% gacha kamaygan; Ekologik toza ishlab chiqarilgan mahsulotlar Yevropa va Osiyo bozorlarida eksport hajmini oshirishga xizmat qilgan; Yashil sertifikatlar (ISO 14001, EcoLabel) mavjud korxonalarning mahsulotlari yuqori narxda sotilgan; O‘zbekistonda 2020–2024 yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi eksportchi korxonalar soni 1,8 baravar ko‘paygan; Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ishlab chiqarish chiqindilarini o‘rtacha 25–30% kamaytirgan.

Bu natijalar yashil innovatsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, xalqaro bozorda ishonchli imidj shakllanishiga ham xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval.

O‘zbekistonda yashil innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar eksport faoliyati ko‘rsatkichlari (2020–2024-yillar)

Yil	Yashil texnologiyalarni joriy etgan korxonalar soni (ta)	Ularning umumiy eksport hajmi (mln AQSh dollari)	O‘rtacha energiya sarfi kamayishi (%)	Mahsulot eksport narxi o‘sishi (%)	Raqobatbardoshlik indeksi (0–1 orasida)
2020	220	310	5.2	2.5	0.56
2021	270	365	9.8	3.7	0.61

2022	340	430	13.5	4.9	0.68
2023	415	525	18.0	6.2	0.74
2024	495	610	22.3	7.4	0.80

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tahlili.

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2020–2024-yillar davomida O‘zbekistonda yashil innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar soni 2,2 baravar oshgan. Bu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, eksport hajmining ham sezilarli o‘shishiga olib kelgan. Birinchi navbatda eksport hajmi 2020-yildagi 310 mln dollardan 2024-yilda 610 mln dollarga, ya’ni qariyb 97% ga oshgan. Yana biri energiya sarfi kamayishi ko‘rsatkichi 5,2 foizdan 22,3 foizgacha oshgani yashil texnologiyalar iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birgalikda mahsulot eksport narxi o‘shishi (7,4%) esa ekologik sertifikatlash va yuqori sifat tufayli jahon bozorida qo‘shimcha qiymat yaratilayotganidan dalolat beradi. Rivojlanshning asosiy maqsadi bu raqobatbardoshlik indeksi 0.56 dan 0.80 gacha ko‘tarilib, xalqaro bozorda O‘zbekiston mahsulotlari imidjining yaxshilanganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, jadvaldagi ma’lumotlar yashil innovatsiyalarni joriy etish nafaqat ekologik foyda, balki iqtisodiy o‘shish va eksport samaradorligini oshirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi.

Ushbu jarayon yashil iqtisodiyot strategiyasi, davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, va xalqaro ekologik standartlarga moslashuv bilan uzviy bog‘liq.

2-jadval

So‘nggi 5 yilga oid tendensiyalar

Yil	Asosiy indikator	Qisqa izoh
2019	Yashil texnologiyalar bo‘yicha global narxlar va xarajatlar pasayishidan boshlash. <u>IRENA+1</u>	Masalan, International Renewable Energy Agency (IRENA) ma’lumotlariga ko‘ra, quyosh va shamol energiyasi elektr energiyasi ishlab chiqarish xarajatlari bir necha yil ichida sekin-sekin pasaygan. <u>IRENA</u>
2020	Pandemiya ta’siri va “yashil tiklanish” (green recovery) kontseptsiyasining kuchayishi; mamlakatlar sarmoyalarni “yashil” sektorlarga yo‘naltira boshladi.	Bu davrda eksport va ishlab chiqarishda innovatsiyalar va ekologik jihatdan toza yechimlar ustuvorlik kasb eta boshladi.
2021	Yashil eksport yo‘nalishida yechimlar kuchayishi: masalan, energetika samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbaalari, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish.	Tahlillar ko‘rsatadiki, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya iste’molini oshirish — eksport sifatini va raqobatbardoshlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlaydi. <u>Business Perspectives</u>
2022	Yashil mahsulotlar va “green trade” hajmining oshishi; energetika sektori xarajatlarida pasayishlar (masalan,	Bu yil “yashil texnologiyalar” global maydonda ancha ko‘zga ko‘rindi.

	IRENA ma'lumotlari) <u>IRENA</u>	
2023	Mamlakatimizda (O'zbekistonda) innovatsiya va eksport strukturasi tahlili: masalan, texnologik eksport va yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi hali ham past. <u>GSBE Research+1</u>	Ma'lumot: O'zbekistonda 2023-yilda yuqori texnologiyali eksport juda kichik ulushga ega ekanligi qayd etilgan.
2024	Yashil texnologiyalarning eksportdagi roli yanada kuchaymoqda; misol: global energetika bo'yicha manbalar qayta tiklanuvchilarga o'tmoqda. <u>Energy+1</u>	Masalan, Xitoyning yashil texnologiyalar eksporti rekord darajaga yetgani haqida ma'lumotlar mavjud. <u>China Crunch</u>

Biz bilamizki barcha jarayon jadvallarda yillar davomida bajarilgan ishlarni raqam ko'rsatkichlari asosida tahlil qilish samarali natija bermoqda. Shu bois 2-jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, unda birinchisi global tendensiya: Global darajada "yashil innovatsiyalar" -ya'ni qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, ekologik toza mahsulotlar va boshqalar - arzonlashuvchi hamda kengayuvchi soha bo'lib kelmoqda. IRENA ma'lumotiga ko'ra, masalan, 2022-yilda yangi quyosh va shamol energiyasi quvvatlarini qo'shish orqali energetika sektorining yoqilg'i xarajatlari jahon bo'yicha kamaygan. IRENA bu esa mahsulotlar va texnologiyalar narxi pastlab, eksport uchun raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Ikkinchisi, texnologik eksport va mamlakatlar raqobatbardoshligi: Rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori texnologiyali mahsulotlarni eksport qilish darajasi hali ham past. O'zbekistonda masalan, "medium-high tech" va "high tech" mahsulotlarning eksportdagi ulushi kichik ekanligi qayd etilgan. GSBE Research+1 bu shuni ko'rsatadiki, "yashil innovatsiyalar"ni joriy etish va eksportga yo'naltirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish uchun salohiyat hali to'liq ishlatilmagan.

Uchinchisi, mahalliy sharoit va imkoniyatlar: O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi bo'yicha tadqiqotlar mavjud, masalan, "qayta tiklanuvchi energiya iste'moli va eksport performance" mavzusida. Business Perspectives bu bilan bog'liq ravishda, agar mamlakat ichida energiya samaradorligi, "toza" ishlab chiqarish va eksportga ixtisoslashgan mahsulotlar (masalan ekologik jihatdan toza mahsulotlar) oshsa, eksportbop mahsulotlar raqobatbardoshligi ham ko'tarilishi mumkin. To'rtinchisi, tashqi muhit – talab va narx ta'siri: Yashil texnologiyalar va mahsulotlar global talab tarafidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Masalan, Xitoyning yashil texnologiyalar eksporti ortib bormoqda. China Crunch bu bilan birga, narxlar pasayishi (masalan, quyosh va shamol energiyasi ishlab chiqarish xarajatlari) eksport qilinadigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Beshinchisi esa xulosa: So'nggi 5 yil ichida yashil innovatsiyalar va "yashil" mahsulotlar eksportbop bo'lishi uchun yetakchi omilga aylanishi aniq. Biroq mamlakat darajasida - O'zbekistonda bu jarayon hali to'liq shakllanmagan va ko'plab imkoniyatlar mavjud. Agar mamlakat ichida yashil texnologiyalarni ishlab chiqarish, ularni eksportga yo'naltirish va ekologik standartlarni oshirish bo'yicha strategiyalar amalga oshirilsa, eksportbop mahsulotlar raqobatbardoshligini sezilarli oshirish mumkin.

O'rganishimizda olib borilgan tahlil bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, yashil texnologiyalarni keng joriy etish korxonalarining resurs tejamkorligini va eksport salohiyatini oshiradi. Shuningdek, mahsulotning ekologik sifati uning bozor narxiga ijobiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari energiya samaradorligi oshgan sayin, ishlab chiqarish tannarxi kamayadi, bu esa raqobat ustunligini ta'minlaydi. Albatta xar bir tahlil rivojlanishni yoki salbiy natijani beradi. Bizda esa hozir ko'rib turibmizki rivojlanish demakdir. Ya'ni yashil innovatsiyalarni rag'batlantirish - milliy iqtisodiyotning barqaror eksport modeliga o'tishning asosiy yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

MUHOKAMA

Mavzuimizga oid muxokama qiladigan bo'lsak, yashil innovatsiyalar nafaqat ekologik jihatdan foydali, balki raqobat ustunligini yaratadigan strategik omildir. Xalqaro bozorda “uglerod izi past” mahsulotlar uchun soliq yengilliklari, bojxona imtiyozlari va grant dasturlari mavjud. O'zbekiston eksportchi korxonalari ushbu imkoniyatlardan foydalanib, o'z brendlarini ekologik jihatdan mas'ul ishlab chiqaruvchi sifatida namoyon etishlari lozim.

Shu bilan birga, muammolar ham mavjud: yashil texnologiyalarni joriy etish uchun dastlabki sarmoya katta, ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli moliyalashtirilmagan. Shunday ekan, davlat tomonidan yashil innovatsion fondlar, soliq imtiyozlari va xalqaro hamkorlik dasturlarini kengaytirish zarur.

XULOSA

Biz bilamiz xar bir jarayonni xulosa qilishimiz lozim. Shu bois yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, yashil innovatsiyalar eksportbop mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda quyidagi jihatlarda muhim rol o'ynaydi: Ya'ni,

- ❖ mahsulot sifatini va ekologik xavfsizligini ta'minlaydi;
- ❖ xalqaro bozorda ishonchli brend imidjini yaratadi;
- ❖ energiya va resurs sarfini kamaytiradi;
- ❖ davlat va xalqaro qo'llab-quvvatlash dasturlaridan foydalanish imkonini kengaytiradi.

Demak, yashil innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga chuqur integratsiya qilish – O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng muhim yo'nalishlaridan biri deb xisoblaymiz. O'zbekiston uchun bu yo'nalishda qishloq xo'jaligi, yengil sanoat va qayta ishlash sanoati asosiy tarmoqlar hisoblanadi. Mavjud muammolarni tizimli ravishda hal etish, innovatsion yondashuvlar va davlat-xususiy hamkorlik asosida yashil eksport salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o'tish

strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ–5874-sonli qarori, 2023-yil.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik Kodeksi” 2024 yil 15-avgust
3. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2014-yil 19-sentyabr № 191, 22-noyabr № 237
4. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conference Zone. – 2022. – С. 129-133.
5. Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari.: Iqt.fan. dokt. diss.avtoref. – T.: 2005-39 b.
6. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik to‘plam. Toshkent, 2020 y.190b.
7. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.
8. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.
9. Statistika agentligi ma’lumotlari (2024-yil).